

## **SMS-BANK TIZIMI ORQALI XIZMATLAR KO'RSATISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

Mijozni “SMS bank” tizimiga ulash Bank tomonidan tasdiqlangan shakldagi “SMS-Banking” tizimi xizmatlarini olish to’g’risidagi arizani Mijoz tomonidan taqdim etish yo’li bilan amalga oshiriladi.

### **1. MAZKUR SHARTNOMADA QO’LLANILADIGAN ATAMALAR**

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi atamalar qo’llaniladi:

**Shartnoma** - bu SMS-Bank tizimidan foydalangan holda Mijoz va Bank o’rtasida masofaviy ma’lumot xizmati ko’rsatish shartnomasi.

**SMS** (qisqa xabarlar xizmati) mobil telefon orqali yuboriladigan matnli xabardir.

**SMS-Bank** – mijozga real vaqt rejimida bank hisobvaraqlari holati va ular bo’yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to’g’risidagi ma’lumotlarni mobil aloqa orqali olish, shuningdek Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi dasturiy tizimdir.

**Ariza** – SMS-Bank tizimidan foydalanish uchun Mijoz tomonidan Bank tomonidan belgilangan shaklda to’ldirilgan ariza.

**Mijoz** – “DAVR-BANK” XATB tizimida xizmat ko’rsatuvchi xo’jalik yurituvchi sub’ekt yoki xususiy tadbirkor.

### **2. SHARTNOMANING PREDMETI**

2.1. Mijoz ko’rsatmasiga asosan Bank mijozning operatsiyalari bo’yicha ma’lumotlar almashinuvini tashkil etish va bitta mobil raqamdan foydalangan holda mijozga ma’lumotnomasi taqdim etish maqsadida uning ishini SMS-Bank tizimi orqali ulash va qo’llab-quvvatlashni ta’minlaydi.

2.2. Qo’shimcha raqamlarni tizimga ulashga belgilangan tartibda qo’shimcha ulanish uchun to’lov amalga oshirilgan taqdirda ruxsat etiladi.

### **3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI VA ISHNI BAJARISH SHARTLARI**

3.1. Bank quyidagilarga majbur:

- xizmatga ulanish uchun ariza bergenidan keyin uch kun ichida mijozni “SMS-Bank” tizimiga ulash;

- Mijoz bilan kechayu kunduz axborot almashish;

- mijozdan olingan barcha ma’lumotlarni 1 oy ichida arxivlash va saqlash;

3.2. Mijoz quyidagilarga majbur:

- shartnoma tuzish vaqtida sms-xabarlarini qabul qilish va qabul qilish funksiyasiga ulangan mobil telefoniga ega bo’lishi;

- SMS-ma’lumot uchun foydalanuvchi qo’llanmasiga muvofiq SMS-Bank tizimidan qat’iy foydalanish;

- SMS-Bank tizimidan noqonuniy foydalanish tahdidi yuzaga kelgan taqdirda, SMS-Bank tizimidan foydalanishni blokirovka qilish to'g'risida darhol Bankka yozma ko'rsatma berish;
  - uchinchi shaxslarning SMS-Bank tizimidan foydalanishiga yo'l qo'ymaslik;
  - mobil telefon raqami o'zgargan, yo'qolgan, o'g'irlangan taqdirda, darhol Bankni yozma ravishda xabardor qilish;
  - Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida Bankni ikki ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish.
  - Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lash.

### 3.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- Mijoz ushbu shartnoma shartlarini buzgan, SMS-Bank tizimidan ruxsatsiz foydalanish xavfi yuzaga kelgan, shuningdek, SMS-Bank tizimlariga xizmat ko'rsatuvchi telekommunikatsiya tarmoqlarida texnik nosozliklar yuzaga kelgan hollarda SMS-Bank tizimidan foydalanishni to'xtatib turish;
- Bank qoidalari va/yoki tariflariga o'zgartirishlar kiritish;
- SMS-Bank tizimining dasturiy ta'minotiga ularning xususiyatlarini yaxshilash, funktional imkoniyatlarini kengaytirish va qo'shimcha xavfsizlik choralarini qo'llashga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish.
- Agar ikki oy davomida joriy hisobvaraqda hech qanday operatsiya amalga oshirilmagan bo'lsa, bank ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish.

## **4. SHARTNOMA MIQDORI VA TO'LOV SHARTLARI**

4.1. Bank har oyning so'ngi kunidan kechiktirmay joriy oy uchun ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun abonent to'lovi sifatida Mijozning hisobvarag'idan 5000 (Besh ming) so'm miqdoridagi mablag'ni yechib oladi.

4.2. Bajarilgan ish uchun to'lov so'mda amalga oshiriladi. To'lov uchun asos mijoz va Bank o'rtasida imzolangan dastlabki shartnoma hisoblanadi.

4.3. Bir necha telefon raqamlari ulangan taqdirda, har oylik komissiya to'lovlarini har bir foydalanilgan telefon raqami uchun undiriladi.

## **5. KAFOLATLAR**

5.1. Bank bajarilgan ishlarning sifatini kafolatlaydi. Ish sifatsiz bajarilgan taqdirda, Bank o'z mablag'lari hisobidan kamchiliklarni bartaraf etadi.

## **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Mijozning noqonuniy xatti-harakatlari natijasida bank zarar ko'rgan taqdirda, mijoz yetkazilgan zararni to'liq hajmda qoplaydi. Bank mijozni shartnoma shartlari buzilganligi haqida xabardor qiladi va Mijozning tizimdag'i ishini bloklaydi. Shuningdek, mijozdan olingan xabarlarda spam va viruslar aniqlansa, mijozning ishi bloklanadi.

6.2. Bank Mijozning kiruvchi va chiquvchi telefon liniyalarining sifati uchun javobgar emas.

6.3. Bank arizada ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga ma'lumotni qat'iy ravishda yuborish majburiyatini oladi va undan keyingi xarakatlar uchun javobgar emas.

## **7. FORS-MAJOR HOLATLARI**

7.1. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, tomonlarning majburiyatlarni bajarishi kechiktiriladi.

7.2. Fors-major holatlariga tomonlar ta'sir qila olmaydigan va yuzaga kelishi uchun javobgar bo'lmanan hodisalar kiradi, masalan: zilzila, suv toshqini, shuningdek ish tashlashlar, hukumat qarorlari yoki davlat organlarining farmoyishlari, ushbu shartnomaning premetini bajarishga to'sqinlik qiladigan har qanday xarakterdagi harbiy harakatlar.

7.3. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu bajarilmaganlik shartnoma tuzilgandan keyin tomonlar oldindan ko'ra olmaydigan va oqilona choralar bilan oldini ololmaydigan favqulodda hodisalar natijasida yuzaga kelgan fors-major holatlarining natijasi bo'lsa.

## **8. NIZOLARNI HAL ETISH**

8.1. Barcha nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida muzokara o'tkazish orqali hal etiladi;

8.2. Agar muzokara o'tkazish yo'li bilan nizolarni hal qilish imkonи bo'lmasa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

## **9. SHARTNOMANING MUDDATI**

9.1 Dastlabki shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va u to'xtatilgunga qadar amal qiladi.